



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Sitora Berdikulova

*Samarqand viloyati Toyloq tumani
9–umumta'lim maktabi o'qituvchisi*

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRUVCHI TOPSHIRIQLAR VA ULARNING MOHIYATI

Annotasiya. Ushbu maqolada o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, texnologiya fani o'qituvchisining dars davomida o'quvchilarga differensial yondashuvni ta'minlay olishini kafolatlovchi topshiriqlar usuli va ularni amalga oshirish mazmuni yoritilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, ravonlik, qiziquvchanlik, sezgirlik, shaklli topshiriqlar.

Texnologiya fani o'qituvchilarining asosiy vazifalaridan biri, o'quvchilarda mustaqil faoliyatni rivojlantirishdan iboratdir. O'z vaqtida to'g'ri tashkil qilingan ijodiy mustaqil ta'lim, o'quvchilarning ta'lim olishdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlovchi shartlardan biri hisoblanadi.

O'qituvchilarni kasbiy-metodik ijodkorligining texnologik darajasi uning bosqichlar bo'yicha taqsimlangan o'qitish usullari, texnikalar, prinsiplar, tavsiyalar tavsifi bilan taqdim etishni o'z ichiga oladi.

O'qitish usullari – bu ta'lim jarayonida o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shaklini aks ettiruvchi metod va yondashuvlar majmuidir.

P.Torrensning eng uzoq davom etgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, kichik o'quvchilarda kreativlikning topshiriq yoki testli ko'rsatkichlari va ularning 22 yil o'tgandan keyingi yuqorida sanab o'tilgan ijodiy yutuqlari ko'rsatkichi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik o'rganilgan. Barcha korrelyatsiya(aloqa)lar yuqori darajada ishonchli bo'lib chiqdi. Jami beshta mezon uchun ko'p sonli korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,63 ga yetdi.



Topshiriqlar **ravonlik** (yuguriklik), **egiluvchanlik**, **originallik** va g'oyalarning **ishlanganlik** kabi ko'rsatkichlarini aks ettirib, verbal (lisoniy), tasviriy (shaklli, rasmlil), ovozli va harakatli batareyalarga guruhlangan va bunday batareyalardan tadqiqotlar amaliyotida yaxlit foydalanishni ko'zda tutadi. Bu batareyalardagi testlardan bittasi yoki bir nechtasini saylanma ishlatish tashxis samaradorligi va qimmatini sezilarli darajada pasaytiradi. Har bir shakl uchun testni o'tkazish va ma'lumotlarni miqdor jihatidan qayta ishlash bo'yicha batafsil yo'riqnomalar ishlab chiqilgan.

Testlarni tuzishda ularning barcha yoshdagi o'quvchilar uchun qiziqarli va diqqatni tortadigan bo'lishiga alohida e'tibor qaratilgan. Shu sababli ishonchli natijalarni ta'minlash uchun test o'tkazish vaqtidagi sharoit katta ahamiyat kasb etadi, u keskin va asabiy bo'lishi mutlaqo mumkin emas. Tajriba o'tkazuvchining o'quvchilar bilan to'laqonli aloqasini, ishonch va xavfsizlik, tasavvurni va ijod erkinligini rag'batlash muhitini ta'minlash juda zarur. Bunda nima to'g'ri yoki nima noto'g'ri ekani haqida to'g'ridan to'g'ri ko'rsatmalar berish mumkin emas, biroq yo'riqnomalarning to'liq anglanishiga erishish lozim bo'ladi.

Ushbu verbal topshiriq va testlarning har biri 5-10 daqiqalik beshta topshiriqni o'z ichiga oladi va 40 daqiqa vaqt talab etadi.

1. "So'rash va topish" topshirig'i – qiziquvchanlik, yangilik va notanishlikka sezgirlik, ehtimoliy prognozlashga qodirlikni aniqlashga ijodiy fikrlashning tobora oydin (tushunarli) uni bajarishda qandaydir vaziyat aks etgan rasmga oid savol berish, bu vaziyatdan oldin nimalar bo'lgani (uning sabablari) va keyin nima bo'lishi(uning oqibatlarini)ni topishga urinib ko'rish talab qilinadi. Qiziquvchanlik sinaluvchining ijodkorlikda aks ettirilgan vaziyat doirasidan chiqishga qodirligini aks ettiradigan savollarning miqdori va sifatida o'z ifodasini topadi, vaziyat sabablari va oqibatlarini haqidagi farazlarni ilgari surish esa ilmiy ijodni modellashtiradi.

2. "O'yinchoqni takomillashtirish" topshirig'i – eng murakkab va ko'rgazmali kuzatishlardan biri. U ijodkorda katta qiziqish uyg'otadi va yuqori darajada validlikka ega.

3. "Noodatiy foydalanish" topshirig'i – Gilfordning keng tarqalgan va yaxshi ma'lum bo'lgan testi modifikatsiyasi. Bu topshiriqda sinaluvchilarga rigidlikni yengish – trivial (odatiy) javoblardan o'zini olib qochish murakkablik tug'diradi. Rigidlik sinaluvchining harakatlarini bittagina usulda o'z diqqatini jamlashida, masalan, qutichalardan odatiy vazifasiga ko'ra, buyumlarni joylash mumkin bo'lgan hajm sifatida foydalanishni taklif qilishida o'z ifodasini topadi.

4. "Noodatiy savollar" topshirig'i – birinchi topshiriq savollarining g'ayriodatiyliliga tobora kuchli e'tibor qaratiladigan varianti.

5. "Kutilmagan vaziyatlar" topshirig'i – tasavvur va fantaziyani talab qiladi. Sinaluvchi kutilmagan vaziyatga duch keladi va undan chiqishning ehtimoliy yo'llarini tasavvur qila bilishi kerak bo'ladi. Garchi bu topshiriq tobora samarali bo'lsa-da, talabalarning katta qismi uni bajarib bo'lmaydigan topshiriq, deb biladi.

Shaklli testlar har biriga bajarish uchun 10 daqiqadan ajratiladigan, ya'ni jami 30 daqiqalik uchta topshiriqdan iborat.



“Buyumni yasa” topshirig‘i – buyum yaratish uchun ma’lum elementdan boshlang‘ich nuqta sifatida foydalanishga qaratilgan original test. Testda buyumlarning badiiy saviyasi baholanmaydi, eng muhimi – g‘oya.

“Tugallanmagan shakllar” topshirig‘i – muallif tomonidan boshqa bir necha testdan loyihalashtirilgan. Geshtalt psixologiyasidan ma’lumki, tugallanmagan shakllar ularni eng sodda yo‘l bilan tugallashga intilishni uyg‘otadi. Shu sababli original (o‘ziga xos) javobni topish uchun mazkur intilishga qarshi chiqa olish talab qilinadi. O‘rta shaklning hammasi o‘zaro farq qiladi, biroq ma’lum barqaror obrazlarga turtki bo‘ladi.

“Takrorlanadigan shakllar” topshirig‘i - avvalgisiga o‘xshash bo‘lib, rag‘bat (stimul) materiali aynan bir xil shakllardan iborat ekani bilan farq qiladi, shu sababli sinaluvchi fikrlash rigidligini muntazam yengib o‘tishi va turli xil g‘oyalarni ilgari surishi kerak bo‘ladi.

Ijodkorlikni tushunish, oldindan aytib berish va rivojlantirishda ijodiy qobiliyatlarning rolini tushuntirish uchun P.Torrens ijodiy qobiliyatlar, ijodiy malakalar va ijodiy motivatsiyaga mos keladigan uchta qisman kesishadigan doiradan iborat modelni taklif qildi va ijodiy yutuqlarning yuqori darajasiga faqat har uchala omil mos kelganidagina umid bog‘lash mumkinligi haqida fikr bildirdi.

Boshqacha aytganda, ijodiy motivatsiya (yangilikka intilish, vazifaga bog‘langanlik) bo‘lmaganida ijodiy qobiliyatlarning yuqori darajasi na ijodkorlik, na ilm, na faoliyatning biror boshqa turida ijodiy yutuqlarni, garchi eng yangi texnologiyalar to‘liq o‘zlashtirilganda ham, kafolatlay olmaydi. Aksincha, tegishli motivatsiyaning mavjudligi va zarur bilim hamda malakalarni egallaganlik darajasida ijodiy imkoniyatlar mavjud bo‘lmasa, ijodiy natijaga olib kelolmaydi, faqatgina ijrochilik mahoratini ta’minlaydi, xolos.

Iqtidorli talabalarning ijodiy realizatsiyalarining muhim shartlari sifatida quyidagilarni sanab ko‘rsatish mumkin: kattalar tomonidan ularning qiziqishlari qo‘llab-quvvatlanishi; ularning intellektual qobiliyatlari darajasi; boshqa mamlakatlarda yashash va o‘qish tajribasi (chet tillarni erta o‘zlashtirish).

Yuqoridagi fikrlar amaliyotda turli mamlakatlar tadqiqotchilarining ishlarida o‘z tasdig‘ini topdi. Masalan, hatto mustaqillikni o‘z qiziqishlari barqarorligining zarur sharti, deb bilgan o‘smirlar ham, qiziqishlarining ota-onalari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi (albatta, bosim o‘tkazmasdan) muhimligini ta’kidlagan. Ayni vaqtda qiziqishlar va darsdan tashqari ehtirolarning barqarorligi ularning ijodiy sermahsulligining muhim, ammo ko‘pincha inkor qilinadigan tavsifi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2006. – 713.
2. Torrance E. P. «Predictive Validity of the Torrance Tests of Creative Thinking» Journal of Creative Behavior, 1972, 6(4), 236-252.
3. Urazova M.B. Bo‘lajak kasb ta’lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish: Pedagogika fan. bo‘yicha doktorlik (DSc) diss. avtoreferati. – T.: 2015. – 78 b.